Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81
FILOLOGIYA

LUG'AT VA LUG'ATCHILIK HAQIDA NAZARIY QARASHLAR

Munisaxon Yaxshibekovna Xusaynova*
"Xorijiy tillar" kafedrasi o'qituvchisi, (PhD) Namangan davlat texnika universiteti
✉ xusaynovamunisa@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada lug'atshunoslikning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni yoritilgan. Dastlab til va leksik qatlamning insoniyat hayotidagi ahamiyati hamda lug'at tuzishga bo'lgan ehtiyojning vujudga kelishi tahlil qilinadi. Shuningdek, lug'at va leksikografiya tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib berilib, shu soha olimlarining lug'atshunoslikka oid ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida lug'atshunoslikning nafaqat tilning lug'aviy boyligini tizimlashtirish va izohlash, balki adabiy til me'yorlarini belgilash, til madaniyatini rivojlantirish, tarixiy-madaniy merosni saqlash hamda foydalanuvchi ehtiyojiga yo'naltirilgan zamonaviy lug'atlar yaratishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslanadi. Maqola yakunida lug'atshunoslikka mualliflik ta'rifi taklif etilib, uning fanlararo xususiyati va bugungi kundagi dolzarbligi yoritiladi.

Kalit so'zlar

lug'atshunoslik, leksikografiya, lug'at, leksik birlik, til madaniyati, adabiy til me'yorlari, leksik qatlam, lug'at tuzish, tilshunoslik, lug'at nazariyasi.

DOI: 10.5281/zenodo.21743157

KIRISH

Dunyo yaralibdiki, insoniyat bir-biri bilan turli usullar orqali muloqotga kirishishga harakat qilgan, dastavval ular imo-ishoralar orqali o'zaro muloqotni amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik tovushlarga qilingan taqlidlar orqali o'zaro fikr almashganlar. Asrlar davomida bu jarayon rivojlanib borgan va provardida narsa buyumlarni nomlash, fikrlarni turli so'zlar orqali ifoda etishga erishdilar va bu turli tillarning hosil bo'lishiga sabab bo'ldi.

Hech bir tilni uning leksik qatlami ya'ni mavjud so'z va so'z birikmalarisiz til sifatida tasavvur qilib bo'lmaydi. Leksik birliklar tilning bosh obyekti hisoblanib, ular insonlar fikrini ifodalash, axborotni yetkazish hamda muloqotni amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Til orqali insoniyat o'z fikrini ifodalaydi, borliqni anglaydi hamda boshqalar bilan muloqotga kirishadi. Shuningdek, leksik qatlam tilning tarixiy rivojlanishi, madaniyati va kundalik hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u doimiy ravishda boyib va takomillashib boradi. Leksik birliklarni bir joyga to'plash, ularni tartibga solishga bo'lgan ehtiyojning tug'ilishi esa tilshunoslikning yana bir bo'limi leksikografiyani paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Leksikografiyaning asosi hisoblangan lug'atlarga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha ta'rif berilgan: Lug'at - biror tildagi so'zlarni ma'lum tartibda (odatda alifbo tartibida) jamlab, izohlab yoki boshqa tilga tarjima qilib berilgan kitob. Berilgan ta'rif umumiy bo'lib, lug'atning sinonimlari, etimologik kelib chiqishi, ko'chma ma'nolari kabi ko'plab xususiyatlarini qamrab olmagan. Leksikografiya esa lug'at tuzish nazariyasi va lug'at tuzish ishidir [1, B.60]. Demak, leksikografiya lug'atlarni tuzish tamoyillari, ularning nazariy jihatlarini o'rganuvchi tilshunoslikning bir bo'limdir, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Rus tilshunos olimi S.G.Barxudarov talqinicha, lug'atshunoslik tilning lug'aviy tarkibini tizimli tarzda o'rganadigan va bu bilimlarni maxsus lug'atlar shaklida aks ettiradigan fandir [2, B.26]. Olim mazkur fikri orqali leksikografiyani nafaqat lug'atchilikning nazariy jihatlarini o'rganiladigan fan sifatida, balki uni amalga

qo‘llab, so‘zlarni tanlab, ularni tartibga solib, ma’nolarini aniqlab, lug‘atning maqsadiga ko‘ra turli xususiyatlarini ko‘rsatgan holda lug‘at yaratadigan fan sifatida ta’riflaydi.

Tilshunos olim A.A. Reformatskiy lug‘atshunoslikka ta’rif berar ekan, “So‘zlarni yig‘ish, ularning ma’nolarini aniqlash va ularni foydalanuvchi uchun qulay shaklda taqdim etish san’ati” deb aytadi [3, B.36]. Tilshunos lug‘atshunoslikni san’at darajasiga ko‘taradi va bu bilan u lug‘atchilik insondan bilim bilan birga alohida estetik did talab qiluvchi ijodiy ish deb ko‘rsatadi. Demak, lug‘at yaratish shunchaki so‘zlarni yig‘ish emas, balki ularni mahorat bilan tartibga solish, so‘zlarning ma’nolarini aniq ifodalash, ularni ilmiy asosda tizimlashtirish va tushunarli hamda foydalanishga qulay shaklda taqdim etishdan iborat murakkab ijodiy jarayondir.

V.V. Vinogradov lug‘atshunoslikka til boyliklarini jamlash, ularni ijtimoiy-tarixiy kontekstda yoritish bilan bog‘liq fan deb qaraydi [4, B.47]. U lug‘atchilikka har bir xalqning til merosini saqlab qoluvchi fan sifatida qaraydi va lug‘atshunoslar oldiga lug‘atlarda keltirilgan barcha so‘zlarning bugungi kundagi mazmuni bilan birga, ularning turli kontekslarda ifodalanishi va tarixan qanday o‘zgarishlarga duch kelganligini ham ko‘rsatib berishni asosiy vazifa sifatida qo‘yadi.

Ingliz tilshunosi Robert Ilson lug‘atshunoslikni til birliklarini tanlash, tahlil qilish va ularni foydalanuvchi ehtiyojiga mos holda taqdim etish jarayoni deb izohlaydi [5, B.246]. Uning fikricha, zamonaviy lug‘atlar foydalanuvchiga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Olim o‘z qarashlarida lug‘atshunoslikning asosiy maqsadi foydalanuvchilar ehtiyojidan kelib chiqib lug‘atlar yaratish deb ta’kidlaydi. Bunda zamon bilan hamnafas holda lug‘atlarning ham o‘zgarib borishi kerakligini aytib o‘tadi.

O‘zbek tilshunosi M. Mirtojiyev lug‘atshunoslikni me’yorlovchi va qadrlovchi vosita deb aytadi. Uning fikricha, lug‘atlar nafaqat tildagi mavjud birliklarni aks ettiradi, balki adabiy til me’yorlarini belgilash, til madaniyatini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi [6, B.19]. Bu fikr orqali tilshinos lug‘atshunoslikni tilni tartibga soluvchi manba, tilning adabiy me’yorlarini belgilovchi omil sifatida tariflaydi. Darhaqiqat, lug‘atlar tilning yillar davomida siyosiy, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy omillar tasirida o‘zgarib ketishini oldini oladi, xalq orasida til madaniyatini barqaror bo‘lishini ta’minlaydi.

H.Sulaymonova lug‘atshunoslikni zamonaviy yondashadi, uni fanlararo, ko‘p tarmoqli sohaga aylanganini ta’kidlaydi [7, B.200]. Uning fikriga ko‘ra, bugungi lug‘atshunoslik faqatgina so‘zlarni to‘plash va izohlash emas, balki ularning ijtimoiy, madaniy, psixolingvistik, va texnologik omillar bilan uzviy bog‘liqligini o‘rganadi. Sulaymonova yuqoridagi fikri orqali lug‘atshunoslikni til va jamiyat o‘rtasidagi dinamik aloqa vositasi sifatida ko‘rsatadi.

A. Madvaliyevning ta’kidlashicha, “Lug‘atshunoslik so‘zlarning shakli, ma’nosi, uslubiy xususiyatlari, ishlatilish doirasi kabi jihatlarni aniqlab, ularni tushunarli, ixcham va amaliy shaklda taqdim etishi lozim” [8, B.51]. Olim lug‘atshunoslikda asosiy maqsad so‘zlarning tilshunoslik xususiyatlarini aniq, lo‘nda va to‘liq yoritib berishga qaratilishi muhumligini nazarda tutadi.

Yuqorida tilshunos olimlarning lug‘atshunoslikka bo‘lgan yondashuv va ta’riflarinini umumlashtirgan holda shunday to‘xtamga keldik: “Lug‘atshunoslik tilning lug‘aviy boyligini to‘plash, tizimlashtirish va izohlash bilan birga, til madaniyatini saqlovchi fan bo‘lib, natijalarni lug‘at shaklida ifodalaydi”.

Shunday qilib, lug‘atshunoslikni tilning lug‘aviy boyligini saqlash, tartibga solish va ilmiy asosda tavsiflash bilan birga, til madaniyatini rivojlantirish, adabiy til me’yorlarini mustahkamlash hamda jamiyatning kommunikativ ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi kompleks fan sifatida baholash mumkin. Kelgusida zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida elektron va korpus lug‘atlarini yaratish, foydalanuvchiga yo‘naltirilgan innovatsion leksikografik yondashuvlarni rivojlantirish lug‘atshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Madvaliyev. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T. 2023
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода) – М.: Междунар. отношения, 1975.
3. Реформатский А.А. Введение в языковедение, издание 5-е,исправленное. – М: Аспект пресс, 2005. – С. 36

4. Виноградов В.В. Об основном словарном фонде и его словообразущей роли в истории языка \\ Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М. 1977. – С.47.
5. Ilson R. Lexicography: An Emerging International Profession. – Cambridge, 1987. – B.246.
6. Mirtojiyev M. O‘zbek tili leksikologiya va leksikografiyasi. – Toshkent, 2002.
7. Sulaymonova H. Leksikografiyaning dolzarb masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. - 200 b.
8. Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – T: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.